

TASVIRIY SAN'AT O'QITISH ORQALI TALABALARINI IJODIY FAOLIYATGA O'RGATISH

Amatjanova Fanuza Azamatovna

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti

Tasviriy san'at va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi 2-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Tasviriy san'at o'qitish orqali talabalarni ijodiy faoliyatga, jarayonga o'rgatish va qolaversa ijoddagi rang-baranglik esa muvaffaqiyat garovi bo'lib, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda albatta o'z samarasini berishi va shundan kelib chiqib, pedagogik ta'limga innovatsion yondashuv doirasida tasviriy san'at orqali talabalarni ijodkorlik xislatlarini rivojlantirish, hozirgi globallashuv davrida juda muhim ahamiyatga ega ekanligi xaqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, estetik, nomutanosiblik, virtual, galareya, badiiy tafakkur, ijod, tasvir, internet, klassik.

Tasviriy san'at o'qitish orqali talabalarni ijodiy faoliyatga, jarayonga o'rgatish va qolaversa ijoddagi rang-baranglik esa muvaffaqiyat garovi bo'lib, ijodiy faoliyatni rivojlantirish juda muhimdir. Hozirda innovatsion texnologiyalarning shiddat bilan barcha sohalarga kirib kelayotgani, axborot almashinuvining yuksak sur'atlarda jadallahishi natijasida ko'pchilik yoshlarning milliy urf-odatlarga zid madaniyatlar ta'siriga tushib qolish holatlari bizning davrimizda oddiy bir holga aylanib qoldi. Yangicha dunyoqarash, noodatiy fikrlashga moyil bo'lgan avlodlar almashuvi va ularning xohish-istiklari toboro o'zgarib bormoqda. Shu bilan birga yosh avlodning ma'naviyati, badiiy tafakkurini rivojlantirish muammolari va ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga bo'lgan talablar o'zgarayotgani, ta'limga jarayonida tasvirlashning yangi zamonaviy badiiy usullarning paydo bo'lishi tasviriy san'at ta'limga ham ulkan vazifalarni qo'yemoqda. Ayrim Talabalarda ma'naviy dunyoqarashining shakllanmaganligi, o'z oldiga yuksak maqsadlar qo'yish, o'zini o'zi bilim olishga, yuksalishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakatchanlik fazilatlarini yetarli darajada rivojlanmaganligi ta'limga sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Jamiyatning hozirgi holati bu estetik qadriyatlarni noto'g'ri tushunish va anglashilmovchilikka olib keladigan nomutanosiblik bilan tavsiflanadi. Virtual aloqalar ichida yashashga o'rgangan tomoshabin, tabiiylikdan toboro uzoqlashib, milliy teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at muzeylari, galareyalar, ajodolarimiz me'rosi, milliy qadriyatlarning hayotimizdagi qadr-qimmatini yaxshi anglay olmaydi. Ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emas. Mana shunday muhitda tarbiyalanayotgan yosh avlodning ko'p jihatdan milliy madaniyatimizdagi klassik asarlarini tushunib yetmasligi va qadriyatlarni nisbatan bee'tiborligi achinarli hol. Aslida, biz mahliyo bo'layotgan ilmiy-texnik taraqqiyotning zamonaviy sharoitida ilm-fan, ta'limga, madaniyat va san'atning o'rni tobora ortib bormoqda. Barcha ma'lumotlarni internetdan olishga o'rgangan yoshlarda, shouular, shov-shuvlarga, har qanday yo'l bilan bo'lsada internetda boshqalarning e'tiboriga tushishga qiziqish juda kuchaydi. Hattoki go'zal tabiat qo'ynida bo'la turib, go'zallikni internet saytlaridan izlashadi. Atrof-borliqqa nisbatan befarq bo'lib, tabiiy go'zallikni his qilish, undan zavqlanish xususiyatlari yo'qolib borayotganligini sezishmaydi. O'quv materiallарini faqat telefonda o'qish, vazifalarni faqat telefon orqali bajarish, tabiat bilan, insonlar bilan faqat telefon vositasida muloqot qilish ulardagi butun voqelikka nisbatan hissiyotni so'ndirmoqda. Chunki, telefonidan olingan axborotlar, tabiatdan olinadigan zavq, kitobni o'qish jarayonida olinadigan hissiyotni bermasligi aniq. Bunday global o'zgarishlar natijasida yoshlarning ma'naviy tarbiyasi muammolari yechimini hal etishda san'atga bo'lgan ehtiyoj yanada kuchaydi. Insoniyat madaniy taraqqiyotida tasviriy san'atning ahamiyati oshdi. Umumta'limga maktabi va kasb-hunar maktabi o'quvchilari hamda oliy ta'limga yangi texnologiyalarni tatbiq etish zaruriyati o'rganiladi. Bunday usullar hozirgi zamon talablariga javob berishi, qiziqarli, yuqori sifatlari bo'lishi,

maktab o'quvchilarining bilimini, ijodiy salohiyatini faol rivojlantirishi, iqtidorli bolalarni aniqlashi, ularga barcha sohalarda o'z iste'dodini shakllantirish va ochib berishda yordam berishi kerak. Tasviriy san'at darslari jarayonida bolalarning atrof-borliq haqida olgan ilk taasurotlari asta-sekin tabiat va jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga nisbatan badiiy tafakkur qilish, voqelikka nisbatan hissiy yondashuvni keltirib chiqarishini unutmasligimiz kerak. Bolalarga ilhom beradigan bunday hissiyotlarni so'ndirib qo'ymaslik uchun o'qituvchida yuksak pedagogik mahorat bo'lishi lozim. Pedagog tizimlilik va bosqichma-bosqichlik tamoyili orqali o'quv jarayonini tashkillashtirib, o'quvchilarni ijodkorlikka yo'naltirib borishi zarur. Buning uchun esa pedagog xodim o'z kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini muntazam oshirib borishga intilishi kerak bo'ladi. Texnologiyalarning rivojlanishi, talabalarning asosiy ko'pchiligining mobil telefonlari va internetga bog'lanib qolishi sharoitida ta'limdagi har tomonlama yetuk barkamol avlod tarbiyasi muammolarining yechimini topish butun dunyoda dolzarb vazifalardan bo'lib qolganligi ushbu maqolaning ilmiy mohiyatini belgilab beradi. Hozirgi paytda yoshlarning ma'naviy tarbiyasini shakllantirishda san'atning kuchidan foydalanish ko'proq samara beradi va ulardag'i go'zallikni his qilish, zavqlanish, qadrlash hissiyotini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Maqolada bu jarayonni tashkil etishda tasviriy san'at o'qituvchisining imkoniyatlari ilmiy tomondan asoslab beriladi.

OTMdha shakllantirilgan ta'lim klasteri texnologiyalari va metodik imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish uzlusiz ta'lim tizimida o'quvchi-yoshlar bilan olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning ta'sirchanligini oshirishda yuqori samaraga erishish omili hisoblanadi. Bizga ma'lumki, o'qitish metodikasi pedagogika, psixologiya, estetika va san'at tarixining ilmiy ma'lumotlariga asoslanadi. Ilmiy asoslangan metodika o'qituvchidan pedagogik faoliyatga nisbatan faol, hissiy jo'shqinlik va ijodkorlik bilan yondashuvni talab qiladi. Metodika o'qitish san'ati sifatida o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqotda to'g'ri yondashuv, u nimani hohlashini oldindan sezish, uning ehtiyojlarini qondirish va o'z vaqtida unga yordam berish vazifasini qo'yadi. O'qituvchi ularga beradigan o'quv materiallari ham sodda va tushunarli bo'lishi lozim. Bundan tashqari, o'qituvchining vazifasi o'quvchilarga murakkab tushunchalarni sodda va oson yetkazib bera olishdan iborat.

Bizning ta'lim tizimimizning amaldagi dasturlarida tasviriy san'atda ijodkorlikka o'rgatish jarayonining klassik usullaridan ko'proq foydalaniladi. Lekin, axborot texnologiyalari rivojlangan hozirgi globallashuv jarayonida xorijdan ijodkorlikni rivojlantirish, ijodiy tafakkurni kuchaytiruvchi ko'plab noan'anaviy usullar kirib kelmoqdaki, bolaligidan bunga qiziqib, shu usullarda ishlashga moyilligi bor yoshlarni ularning barcha yosh tabaqalarida uchratish mumkin. Bu ilk bolalik davridagi turli hodisalar va milliy an'analarga qiziqishning paydo bo'lishi, o'rtoqlari, oilasi davrasida o'zining yaxshi sifatlarini namoyon qilish, barcha narsada muvaffaqiyatga erishishga intilish, o'rtoqlarining hatti-harakati va o'z harakatlariga mustaqil baho berish, tevarak-atrofdagilarga nisbatan ma'naviy-axloqiy munosabatning paydo bo'lishidan boshlanadi.

Darhaqiqat, hozirgi yoshlar yangilikni xush ko'rishadi, ular turli usullarda ishlashga qiziqishadi. Yuqorida keltirib o'tilgan muammolar yechimini ulardagi mobil vositalarga bo'lgan moyilliklari asosida bartaraf etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda yoshlarni yangi AKT vositalaridan voz kechish emas, balki, shu vositalar orqali ulardag'i ijodkorlikka bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bu orqali ma'naviy dunyosini boyitish, badiiy tafakkuri, ma'naviyatini tarbiyalash maqsadga muvofiq bo'ladi. Ijoddagi rang-baranglik esa muvaffaqiyat garovi bo'lib, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda albatta o'z samarasini beradi. Ta'lim sifatiga erishish uchun zamонавиy ta'limning asosiy vazifasi ijodkorlikda aynan bir xillikdan qochishi, ijodkorlikka yo'naltiruvchi har qanday usullarni qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'lishi lozim. Ijodkorlikni rivojlantirish bilan birga, ulardag'i ma'naviy dunyoqarashini tarbiyalash ta'lim jarayonida uzviylik va uzlusizligini ta'minlashning ajralmas komponenti hisoblanadi.

Bunda ijodkor shogird nafaqat ijod qilish sirlarini, balki, o'z ishi va boshqalarning asarlarini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarini mushohada qilish hamda ijodiy tafakkur qilish yo'llarini ham o'rganadi. OTM vakili, talaba-o'qituvchi va məktəb o'quvchisi ishtirok etadigan ta'lim klasteri asosidagi bu ijodiy muhit "Ustoz-shogird" tizimining davomiyligini ham ta'minlaydi. "Eshitdim-ko'rdim-bajardim" tamoyiliga asoslangan ijodiy jarayon, undagi ishtirokchilarni ham ijodiy, ham ma'naviy jihatdan tarbiyalanib borishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Bunday mashg'ulotlar talabaning kasbiy hamda pedagogik faoliyatga tayyorligini rivojlantirishga qaratilgan nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirish jarayoni bo'lib xizmat qiladi. Mana shunday shakllantirilgan ijodiy muhitda iqtidorli talabalar va o'quvchilar faoliyati institut professor-

o‘qituvchilari, mahoratli rassomlarning tezkor e’tibori, ma’nan rag‘batlantirilishi o‘quvchi-yoshlardagi tasviriy san’atga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Tarbiyaga bunday yangicha, tizimli yondashuv o‘quvchi-yoshlarning tasvirlash imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, yoshlar ma’naviyatidagi tayanch fazilatlarini shakllantirish, o‘z tasavvuridagi g‘oyalarni amalda ifodalash, erkin va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishni kafolatlaydi. Ularning ijodiy ishlari bilan tashkil etilgan ko‘rgazma va tanlovlardan yoshlardagi yutuq va omadsizliklarni to‘g‘ri qabul qilib, to‘g‘ri xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Tasviriy va amaliy bezak san’atidagi yutuqlar bolalardagi o‘ziga bo‘lgan ishonchini kuchaytiradi. U faoliyatning yangi turiga nisbatan o‘zidagi tortinchoqlik to‘siqlarini qat’iyat bilan yengib chiqadi. Ijodiy mashg‘ulotlar bolalarda estetik didni shakllantirib qolmay, balki ularni amaliy bezak san’ati va milliy xalq hunarmandchiligi asarlari bilan tanishtiradi, ularga zarur ijodiy bilimlarni beradi, badiiy mehnat ko‘nikmalarini rivojlantiradi va shu bilan birga ularni iqtidori bo‘yicha kasblarga yo‘naltirishga xizmat qiladi. Talaba-yoshlarni turli axborot xurujlari, yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolishining oldini olish, “maktab-ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i” konsepsiysi doirasida oliy ta’lim muassasalarining umumta’lim maktablari bilan o‘quvchi-yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy dunyoqarashini shakllantirish, kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash kabi masalalarda mentorlik modeli asosida hamkorligini rivojlantirishda samaradorlikni oshiradi.

Xulosa qilib aytganda talabalar ijodidagi rang-baranglik esa muvaffaqiyat garovi bo‘lib, ijodiy faoliyatni rivojlantirishda albatta o‘z samarasini beradi. Shundan kelib chiqib, pedagogik ta’lim innovatsion klasteri doirasida tasviriy san’at orqali o‘quvchi-yoshlardagi ijodkorlik xislatlarini rivojlantirish, ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish hozirgi globallashuv davrida juda muhim ahamiyatga ega degan xulosaga kelish mumkin. Talaba yoshlarga tayyor bilimning berilmasligi, ularni mustaqil izlanish, faol ijodkorlikka yo‘naltiradi. Ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga ta’limning kasbga yo‘naltirish va mustaqil hayotga tayyorlash vazifalari ham amalga oshiriladi. Odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatlari, bilimga chanqoq, ruhan kuchli, tafakkuri keng yoshlardan qanday jamiyat taraqqiyoti uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Абдирасилов, С. Ф., Толипов, Н. Х., & Толипов, Н. Н. (2017). Эффективность исторического подхода в художественном обучении. Молодой ученый, (20), 417-421.
- Talipov, N., & Talipov, N. (2021). CREATIVE TECHNOLOGIES FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS’ CREATIVE ACTIVITY THROUGH ART EDUCATION. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v3.12>
- 3.Jabbarov, R., & Rasulov, M. (2021). FURTHER FORMATION OF STUDENTS’ CREATIVE ABILITIES BY DRAWING LANDSCAPES IN PAINTING. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.09>
- 4.Absamatovich, R. M., & Bahodirhon, A. M. (2021). Methodological Basis Of Creation, Organization And Decoration Of Platter's Artistic Composition In Applied Art. The American Journal of Applied sciences, 3(04), 298-310. <https://doi.org/10.37547/tajas/Volume03Issue04-42>
- 5.Saodat Makhkamova Bakhtiyorovna. (2021). QUESTIONS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR ARTISTIC GAFUR ABDURAKHMANOV ANALYSIS OF WORKS OF FINE ART IN SCHOOL. Euro-Asia Conferences, 5(1), 13–18. Retrieved from <https://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/437>
- 6.Nazirbekova, S. (2021). THE IMPORTANCE OF FIELD PRACTICE IN FINE ARTS. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-19.03.2021.v4.35>
- 7.Ahmedov, M.-U., & Xolmatova, F. (2021). TEACHING STUDENTS TO DRAW ELEMENTS OF PATTERNS IN WOOD CARVING CIRCLES. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-30.04.2021.v2.17>
- 8.Avazboyev, A., & Jamaldinova, M. (2021). Texnologiya fanini “STEAM-ta’lim” yondashuvi asosida o‘qitishning mohiyati va afzalliliklari. Жамият ва инновациялар, 2(5), 109–115. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5-pp109-115>

- 9.Махкамова, С. Б. (2021). ВОПРОСЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ХУДОЖЕСТВЕННОМУ АНАЛИЗУ ПРОИЗВЕДЕНИЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ШКОЛЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 44-53.
- 10.Nozimovich, T. N., Ibrahimovna, Y. N., & Ravshanovich, J. R. (2020). Development Of Student's Creative Abilities In The Fine Arts In The Higher Education System. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 2(07), 232-238. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume02Issue07-30>
- 11.Абдусаломходжаев, Н. (2021). ИСТОРИЧЕСКИЕ ЛИЧНОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ МАЛИКА НАБИЕВА. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.42>
- 12.Расулов, М. (2021). НАУЧИТЬ СТУДЕНТОВ ВО ВНЕШКОЛЬНЫХ УЧЕРЕЖДЕНИЯХ СОСТАВЛЯТЬ КОМПОЗИЦИИ НА УРОКАХ РЕЗЬБЫ ПО ДЕРЕВУ. Збірник наукових праць ЛОГОС. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.44>
- 13.Халимов, М. К. Сравнение продуктивности учебной доски и проектора в преподавании предметов, входящих в цикл инженерной графики / М. К. Халимов, Р. Р. Жабборов, Б. Х. Абдуханов, А. А. Мансуров. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2018. — № 6 (192). — С. 203-205. — URL:<https://moluch.ru/archive/192/48066/>
- 14.Рустам Джаббаров (2021). Уникальное направление, вдохновленное творчеством Камолиддина Бехзода, великого миниатюриста Восточного Возрождения. *Общество и инновации*, 2 (5/S), 59-67. doi: 10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67
- 15.Jabbarov, R. (2021). Sharq uyg'onish davri yetuk san'atkorib buyuk miniatyurachi musavvir Kamoliddin Behzod ijodi ta'sirida yuzaga kelgan o'ziga xos yo'naliш. Жамият ва инновациялар, 2(5/S), 59–67. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp59-67>
- 16.Abdurashidxonova, M. ., & Rasulov , M. (2021). O'zbek xalq amaliy san'ati bo'l mish Toshkent yo'g'och o'yumakorligi maktabi va namoyandalari. Жамият ва инновациялар, 2(5/S), 130–137. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss5/S-pp130-137>
- 17.Абдирасилов, С. Ф. (2016). МЕТОДИЧЕСКОЕ И ТВОРЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ ШКОЛЫ В СОВРЕМЕННОМ ОБУЧЕНИИ. Научная дискуссия: вопросы педагогики и психологии, (4-1), 125-133.
- 18.Yuldasheva, N. (2021). DEVELOPMENT OF ARTISTIC AND AESTHETIC COMPETENCE IN FINE ARTS TEACHERS. ГРААЛЬ НАУКИ, (2-3), 418-423. <https://doi.org/10.36074/grail-of-science.02.04.2021.084>
- 19.Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). ТАЛАБАЛАРНИ БАДИЙ ТАЪЛИМ ОРҚАЛИ ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. Збірник наукових праць ЛОГОС.
- 20.Talipov Nozim Khamidovich, & Kholmurodova Fotima, Kholmurodova Zukhra. (2022). FEATURES OF ART EDUCATION FOR FUTURE FINE ART TEACHERS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(01), 33–39. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-01-06>
- 21.Nazirbekova, S., Talipov, N., & Jabbarov, R. (2019). Described the Educational, Scientific, and Educational Institutions of the Miniature. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 15(2), 364-367. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v15.2.1192>
- 22.Талипов, Н., & Талипов, Н. (2021). Проблема исторического жанра в изобразительном искусстве: взгляд на творческую школу художника Малика Набиева. *Общество и инновации*, 2(4/S), 607–613. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss4/S-pp607-613>
- 23.Талипов, Н. Х. (2020). КАК СОЗДАЕТСЯ КОМПОЗИЦИЯ НАТЮРМОРТА. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ИСКУССТВА: ИСТОРИЯ, ТЕОРИЯ, МЕТОДИКА (pp. 124-127).
- 24.Yusubali o'g'li, Y. S. (2021). Xvi–Xvii Asrlar GArbiy Yevropa Tasviriy San'atida Maishiy Janrning Rivojlanishi. Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали, 1(6), 191-197.
- 25.Rustam Ravshanovich, J. (2021). Formation of Creative Abilities of Students by Teaching the Genre "Landscape" of Fine Arts. Spanish Journal of Society and Sustainability, 1, 1-8. Retrieved from <http://sjss.indexedresearch.org/index.php/sjss/article/view/1>
- 26.Jabbarov, R. (2019). Formation of Fine Art Skills by Teaching Students the Basics of Composition in Miniature Lessons. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 17(1), 285-288. doi:<http://dx.doi.org/10.52155/ijpsat.v17.1.1424>

27.Ravshanovich, J. R. (2021). Rangtasvir Taraqqiyotining Ustuvor Yo ‘nalishlari. Бошқарув ва Этика

Қоидалари онлайн илмий журнали, 1(6), 137-148. <http://www.sciencebox.uz/index.php/sjeg/article/view/542>

28.Jabbarov Rustam Ravshanovich. (2022). TASVIRIY SAN’ATDA MANZARA KOMPOZITSIYASINI O’QITISH ORQALI TALABALARING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANТИRISH. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(4), 145–153. Retrieved from <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/335>

29.Жаббаров Рустам Равшанович. (2022) РАНГТАСВИР АСАРЛАРИНИ ЎРГАНИШДА ҚАЛАМТАСВИР НАЗАРИЯСИ ВА ҚОНУНИЯТЛАРИ. “Zamonaviy ta’lim: muammo va yechimlari” ilmiy-amaliy respublika konferensiyasi. <http://conf.iscience.uz/index.php/mahalliykonf/article/view/206>

30.Amatjanova Fanuza Azamatovna. (2022). TASVIRIY SANATDA TALABALARNI MANZARA ISHLASHGA O’RGATISH. International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences, 2(4), 110–115. Retrieved from <http://ijpsss.iscience.uz/index.php/ijpsss/article/view/325>